

Date: 9th January-2026

OIV BILAN INFEKSIYALANGAN ERKAK VA AYOLLARDA SURUNKALI
GASTRODUODENAL KASALLIKLARNING “YETAKCHI” XAVF OMILLARI
BILAN BOG‘LIQLIGINI O‘RGANISH

Makhsumova D.K., Sheraliyev A. B., Saliev D. Q.
Andijon davlat tibbiyot instituti



Dolzarbliigi: So‘nggi yillarda olib borilgan klinik-epidemiologik tadqiqotlar OIV bilan infeksiyalangan aholi orasida surunkali kasalliklarning shakllanishi va rivojlanishida yetakchi xavf omillarining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. OIV-infeksiyasi fonida immun tizimining susayishi, metabolik jarayonlarning buzilishi hamda psixoemotsional omillar surunkali patologiyalarning tezroq rivojlanishi va og‘irroq kechishiga olib keladi. Shu sababli, OIV bilan infeksiyalangan erkak va ayollarda surunkali gastroduodenal kasalliklar rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy xavf omillarini aniqlash dolzarb muammo hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: OIV bilan infeksiyalangan erkak va ayollarda surunkali gastroduodenal kasalliklarning rivojlanishida “yetakchi” xavf omillarining rolini o‘rganish.

Materiallar va usullar: Tadqiqot uchun Andijon shahrida yashovchi OIV bilan infeksiyalangan aholi tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida klinik, epidemiologik, laborator va instrumental tekshiruv usullaridan foydalanildi. Bemorlarning anamnezi, turmush tarzi, jismoniy faolligi, ovqatlanish xususiyatlari, tana vazni ko‘rsatkichlari, lipid va uglevod almashinuvi holati, shuningdek psixoemotsional holati kompleks tarzda baholandi. Olingan ma’lumotlar statistik jihatdan qayta ishlanib, natijalarning ishonchliligi aniqlandi.

Natijalar” OIV bilan infeksiyalangan aholida surunkali kasalliklarning rivojlanishida nasliy moyillik yuqori darajada aniqlanib, u 89,2% ni tashkil etdi. Psixoemotsional agressivlik omili 86,4%, gipodinamiya esa 72,2% hollarda qayd etildi. Shu bilan birga, 33,1% va 30,2% hollarda lipid omillari xavfi — giperxolesterinemiya va gipertrigliseridemiya aniqlangan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar statistik jihatdan ishonchli bo‘ldi ($R<0,05$).

OIV bilan infeksiyalangan 20–69 yoshdagi shaxslar orasida surunkali kasalliklarning tarqalishi ayniqsa yuqori bo‘lib, ushbu yosh guruhida nasliy moyillik 89,6%, gipodinamiya 72,9%, giperxolesterinemiya 33,7%, gipertrigliseridemiya 26,2%, psixoemotsional agressivlik 65,4% va gipoglikemiya 25,0% hollarda aniqlandi ($R<0,05$). Aniqlangan xavf omillari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning birgalikdagi ta’siri OIV-infeksiyasi fonida surunkali gastroduodenal kasalliklarning kechishini og‘irlashtiradi.

Xulosa: OIV bilan infeksiyalangan erkak va ayollarda surunkali gastroduodenal kasalliklarning shakllanishi va rivojlanishida nasliy moyillik, gipodinamiya, lipid va uglevod almashinuvi buzilishlari hamda psixoemotsional agressivlik yetakchi xavf omillari hisoblanadi. Ushbu omillar OIV-infeksiyasi fonida oshqozon-ichak trakti kasalliklarining rivojlanishiga, shuningdek boshqa a’zolar va tizimlar tomonidan patologik o‘zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shu bois, OIV bilan infeksiyalangan bemorlarda surunkali

Date: 9th January-2026

gastroduodenal kasalliklarni davolash va profilaktika qilishda aniqlangan xavf omillarini kompleks tarzda hisobga olish zarur.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

